

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO’JALIGINI MEXANIZATSİYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI” MTY

YER RESURSLARI VA KADASTR FAKULTETI

Davlat shaharsozlik kadastro

MUSTAQIL ISH

Mavzu: Davlat shaharsozlik kadastrini yuritishda zamonaviy
axborot texnologiyalaridan foydalanish

Ashurov A.

Toshkent 2023

МАВЗУЛАР

1	Kirish.
2	Asosiy qism:
2.1	Zamonaviy axborot texnologiyalari ma'lumotlarini to'plash va qayta ishlash .
2.2	Davlat yer kadastrini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish milliy maqsadli dasturi.
2.3	Dasturning umumiyligini qoidalari .
3	Xulosa.
4	Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida qayd qilinadiki, yer resurslari respublikaning milliy boyligidir. Ulardan oqilonna va samarali foydalanish zarur. Bu esa ko'p jihatdan yerning eng muhim xossalari va xususiyatlari qanchalik chuqur va har tomonlama o'rganilganligiga bog'liq. Bu esa eng avvalo, yerdan oqilonna foydalanishga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan tadbirlar majmuisini ishlab chiqishga izchillik bilan yondoshish va amalda to'plangan tajribalarga rioya qilgan holda tashkil etilishi mumkin. 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati) to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, 1993 yil 6 maydagi «Yer solig'i to'g'risida»gi 1998 yil 28 avgustdagi «Davlat yer kadastrini to'g'risida»gi, 2000 yil 15 dekabrdagi «Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonun», 1998 yil 31 dekabrdagi 543-sonli «O'zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish tartibi to'g'risida»gi qarorlari va boshqa qator me'yoriy hujjatlar yerdan foydalanishni tashkil etishga yo'naltirilgan asosiy davlat tadbiri hisoblangan yer kadastriga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada yerga egalik qilish va yerdan foydalanishda yangi shakllar vujudga keltiradi hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar doirasi kengaydi.

Asosiy qism :

Zamonaviy axborot texnologiyalari ma'lumotlarini to'plash va qayta ishlash .



-
- **Texnologiya** - so'zi yunoncha (**techne**) can'at, mahorat, o'quv ma'nolarini anglatadi, bu esa jarayonlar demakdir.
- **Axborot** - texnologiyasi obekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsuloti) ning holati haqidagi yangi sifat axborotini olish uchun ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishning vosita va uslublari jamlanmasidan foydalanuvchi jarayondir.
- Zamonaviy axborot texnologiyalari shaxsiy kompyuterlar telekommunikatsiya va vositalaridan foydalangan holda foydalanuvchi is hining do'stona interfeysli axborot texnologiyasidir.
- Yuqoridaqilardan ko'rinish turibdiki, iqtisodiyotning turli tarmoq-lari qatori Davlat shaharsozlik kadastrini tezkor yuritish, er kadastro uchun ko'p rangli, yuqori sifatli plan-kartografik materiallar tayyorlash, er resurslarining taqsimlanishi va doimiy qayta taqsimlanishi, erdan foydalanish bo'yicha hisobotlar tuzish va boshqa qator er kadastro masalalarini zamonaviy talablar asosida yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanimoqda.

- Маълумотлар
- Ахборот технологиялари
- Ахборот маҳсулоти

Ахборот технологиялари жамиятнинг ахборот заҳираларидан фойдаланишнинг энг муҳим жараёнларидан биридир. Ҳозирги пайтга келиб у бир неча эволюцион босқичларни босиб ўтди. Улардан ҳар бирининг алмашинуви асосан фан ва техника тараққиётининг ривожланиши, ахборотни қайта ишлашнинг янги техника воситаларининг пайдо бўлиши билан белгиланади.

Ma'lumotlarni saqlash. Keyingi davrlarda foydalanish maqsadida aksariyat ma'lumotlarni saqlash. Ularni ma'lum tizimda saqlash uchun ma'lumotlar bazasi yaratiladi.

Hisobotlarni yaratish. Ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha axborotlar texnologiyasidan foydalangan holda talabgorlar va boshqa manfaatdor idoralar uchun zarur xujjatlar yaratiladi. Bu xujjatlar ko'pincha yillik yoki davriy hisobotlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Davlat shaharsozlik kadastrini yuritishning asosiy bo‘g‘inlaridan biri - bu er maydonlari, unda joylashgan bino va inshootlar, ularning sifati, joylashuvi holati, qiymati va boshqa ko‘rsatkichlari bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlashdir. Ma’lumotlarni qayta ro‘yxatga olish, to‘plash, qayta ishlash va yangilab borishning axborot texnologiyalari yaxshi tizimlashgan ma’lumotlar bazasini yaratishga mo‘ljallangan. Bu texnologiya boshqaruv, mehnatning ayrim mayda, doimo takrorlanuvchi operatsiyalarini avtomatlashtirish maqsadlarida qo‘llaniladi. SHu bois axborot texnologiyalari tizimlarini Davlat shaharsozlik kadastrida qo‘llash xodimlar mehnati samaradorligini ancha oshiradi. Ma’lumotlarni qayta ishlashning axborot texnologiyasi asosan ularni qayta ishlash uchun standart amallar va algoritmlarini ma’lum kirish ma’lumotlariga ega bo‘lgan masalalarni hal qilishga mo‘ljallangandir.

Ma’lumki har bir tumanda Davlat shaharsozlik kadastriga oid quyidagi masalalar hal qilinadi:

- ko‘p miqdordagi hisob – kitob ma’lumotlari to‘planadi va qayta ishlanadi;
- er resurslarining holati va taqsimlanishi to‘g‘risida, ularda joylashgan bino va inshootlar, ulardan foydalanishning davriy nazorati to‘g‘risida davriy va yillik hisobotlarni yaratish;
- manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan joriy ravishda kelib tushadigan turli – tuman so‘rovnomalarga javoblar olish hamda qog‘oz ko‘rinishida ularni rasmiylashtirish yoki hisobotlar tuzish.

Ushbu axborot texnologiyasini boshqalaridan farqlovchi, ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq qator xususiyatlari mavjud.

Jumladan:

- tuman er tuzish va ko'chmas mulk kadastro xizmati uchun ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha vazifani bajarish. Har bir tuman xizmati erlardan foydalanish, ularni tashkil etish, ko'chmas mulklar va er uchastkalarining hisobini doimiy yuritib borish, qiymatini aniqlash bo'yicha katta miqdorlardagi ma'lumotlarga ega bo'ladi. SHuning uchun ham ushbu ma'lumotlarni qayta ishlash va shunga mos axborot texnologiyasini ishlab chiqish uchun tumanda albatta axborot tizimi bo'lishi zarur;
- algoritmi ishlab chiqish uchun faqatgina yaxshi tarkiblashtirilgan masalalarni echish;
- mumkin qadar kamroq xodimlar ishtirokida avtomatik rejimda ishning asosiy hajmini bajarish;

Ma'lumotlarni to'plash. Tuman er tuzish va ko'chmas mulk kadastro xizmatida bajariladigan barcha ishlar bo'yicha ma'lumotlar to'planadi. Bu ma'lumotlar er uchastkalarining miqdori, sifati, er maydonlariga bo'lgan huquq turlari, ularni erdan foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi va boshqalar.

Davlat yer kadastrini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish milliy maqsadli dasturi.



- Davlat shaharsozlik kadastrini bugungi zamon talabi darajasida yuritish maqsadida albatta maxsus davlat dasturi ishlab chiqish va uni bosqichma bosqich amalga oshirish talab etiladi.
- 1. Dasturning umumiy qoidalari.
- 2. Asosiy dasturli tadbirlar.
- 3. Dasturni amalga oshirish muddati.
- 4. Dasturni ishlatish manbalari
- 5. Asosiy kutilayotgan natijalar.
- 6. Dastur ishlanishini boshqarish va uning bajarilishi nazorati.
- Tuman, shahar geofondlari - binolar va inshootlarning topografiya-geodeziya, kartografiya, mahandislik-geologiya, gidrogeologiya, ekologiya, sanitariya-gigiena, sotsiologiya, loyihalash-rejalashtirish, tarixiy-madaniy, stixiyali ofatlar va texnogen falokatlari, texnik inventarizatsiyalanganligi va pasportlashtirilganligi, mikroseysmik rayonlashtirilganligi va seysmik turg'unligiga oid zamonaviy va tarixiy geoaxborot ma'lumotlari omboridir.
- Tuman, shahar binolari va inshootlari to'g'risidagi kadastr ma'lumatlarining kompyuter bazasi tuman, shahar binolari va inshootlarining kadastr, reestr daftariга kiritilgan ma'lumotlari asosida tuziladi.

Dasturning umumiy qoidalari .



- Bugungi rivojlangan, axborot nesnologiyalari asri deb nom olgan davrda dalat kadastrlari yagona tizimini yuritish ishlarini takomillashtirish, avtomatlashtirish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.
- Davlat shaharsozlik kadastrini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish ishlarini bajarish maqsadli dasturini O'zbekiston Respublikasida yaratish va yuritish uchun boshqa kadastrlar bilan birgalikda barcha boshqa kadastrlar uchun asos bo'lib hisoblanadigan davlat er kadastrini yuritishni mukammallashtirish borasida bugungi kun fan va texnika yutuqlarini o'z ichiga oladigan, bu boradagi ishlarni to'liq kompyuter dasturlari asosida yuritishni malga oshirishga imkon beradigan maxsus davlat dasturi ishlab chiqish talab etiladi.
- SHunday yagona dastur yaratilsa, natijada davlat kadastrlarini yuritishda yagona avtomatlashtirilgan tizim asosida davlat kadastrlarini, shu jumladan davlat shaharsozlik kadastrini ham avtomatlashtirilgan tizimda yuritish imkoni paydo bo'lar edi.
- Bu esa o'z navbatida shaharsozlik kadastri ishlarini yuritishda tezkorlikka, ma'lum darajada mablag'larni tejashga va yuqori aniqlikka erishish imkoniyatlarini bergen bo'lar edi.

Dasturning maqsadi O'zbekiston Respublikasining barcha hudud-lari i bo'yicha davlat er kadastrini yurgizishning avtomatlashtirilgan tizi-mini davlat axborot tizimi sifatida ishlab chiqish va yoyishdir.

- Bu esa bo-zor iqtisodiyoti sharoitiga muvofiq er munosabatlari sohasida yagona siyosat o'tkazish, davlat va mamlakat aholisi manfaatlarini ta'minlash, mulkdorlar, er egalari, foydalanuvchilar va er ijara-chilari huquqlarini himoya qilish, shuningdek, madaniyatli er bozorini va ko'chmas mulk bilan bog'liq bulgan axborotli (informatsion) ta'minlash imkonini beradi.
- Dasturning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat bo'ladi:
 - informatsion texnologiyalar va yangi kompyuter texnologiyalari asso-sida davlat shaharsozlik kadastrini yuritishni ta'minlashning amal-dagi mexanizmini yaratish;
 - er resurslarini boshqarishda idoralararo hamkorlikni takomillash-tirish;
 - ko'chmas mulk va uning oldi-sottisi hamda boshqa axborot is'temolchi-lari huquqlarini yagona davlat reestrini yuritish uchun ko'chmas mulk va uni baholash bo'yicha Davlat komissiyani er kadastri axboroti bilan ta'minlash;
 - samarali ishlab chiqarish va sarmoyani rag'batlantiradigan er ijara-chi-lari va foydalanuvchilar, er egalari, mulkdorlar huquqlarining dav-lat himoyasi mexanizmini harakatga keltirish;
 - er uchun to'lovlarni to'liq taqsimda va o'z vaqtida to'lashni ta'minlash-ni amalga oshirish;
 - er va boshqa ko'chmas mulk bozorlari funksiyasini qo'llab quvatlash;

yer solig'i hajmi va er uchun boshqa to'lovlar hisob – kitobi mexanizmini takomillashtirish;

- er resurslari mavjudligi va holati hakidagi ma'lumotlar bazasini yaratish va boshqarish;
- hududlar rivojlanishinini samarali boshqarish, alohida huquqiy m'yordagi(tabiat muhofazasi, qo'riqxona, rekreatsion) hudud chegara-sini o'rnatish, shuningdek er resurslaridan unumli foydalanish bo'yicha dastur ishlab chiqish, erdan foydalanish davlat nazorati, er monitoringi, er qurilishini qo'llab quvvatlash va informatsion ta'-minlash.
- Ushbu dastur ko'chmas mulk va erga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishni avtomatlashtirishni ko'zda tutmaydi. YUqorida ko'rsatilganlar amaldagi O'zbe-kiston Respublikasi Fukorolik kodeksi qoidalari va hozirgi vaqtda shakl-langan qonunchilik, shuningdek, me'yoriy – huquqiy hujjatlarga muvofiq ko'chmas mulk obektlarini shakllantirish va ularni ro'yxatga olish jarayon-ida qatnashuvchi idoralar tashkilotlari bilan idoralararo informatsiion hamkorlik asosida bajarilishiga yordam beradi.
- Dastur qisqa muddatlarda amalga oshirilib, asosiy vazifalari O'zbe-kiston axborot-kommunikatsiya ko'laming asosiy tizimini hisoblangan bosqichma-bosqich butun hudud bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimiga o'tish yo'li bilan er axborot ma'lumotlari banki, texnologik xamda me'yoriy – huquqiy bazasini yaratishga imkon beradi.

Xulosa.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 15-moddasiga muvofiq, davlat yer kadastri yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy tartibi to'g'risidagi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va qiymati to'g'risidagi, yer uchastkalarining joylashgan o'rni va o'lchamlari to'g'risidagi yerlarni yer uchastkalari mulkdorlariga, yer egalariga va yerdan foydalanuvchilarga taqsimlash to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat. Davlat yer kadastri yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer tuzish ishlarini tashkil etish, yer tuzish, yer uchun to'lanadigan haq miqdorlarini asoslash, xo'jalik faoliyatiga baho berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangandir. Davlat yer kadastri muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Uning ma'lumotlaridan iqtisodiy tarmoqlarining turli-tuman masalalarini hal qilishda, jumladan, yer solig'i, ijara haqini belgilashda, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorliklarini rejashtirishda va boshqa masalalarni hal qilishda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.R.Bobojanov, S.B.Ro'ziboyev Aholi yashash joylari kadastro. O'quv qo'llanma, T., TIMI, 2009y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi» O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari 19-jild. T; Adolat, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Davlat er kadastro to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari 19 – jild. T; Adolat 1998».
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 31– dekabridagi 543 –sonli qarori «O'zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish to'g'risida. T; Vazirlar Mahkamasi, 1999».